

O'ZBEKISTON TARIXIDA TABIIY VA ANTROPOGEN
EKOMUAMMOLAR O'RNI

Abdushukurova Iqbol Kuchkarovna

GulDU "Tarix" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *O'zbekiston hududida tarixan tabiiy va antropogen ekomuammolar muhim o'rin tutgan. Qadim va o'rta asrlardan boshlab, Markaziy Osiyo mintaqasining geografik sharoiti (qurg'oqchilik, cho'l, iqlim o'zgarishlari) mahalliy aholi hayotiga bevosita ta'sir qilgan. Amudaryo va Sirdaryo daryolari tizimidagi tabiiy o'zgarishlar va paleoklimatik hodisalar – suv sathining pasayishi, toshqinlar hamda chang bo'ronlari – dehqonchilik, chorvachilik va shaharlardagi iqtisodiy faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, XX asr boshlaridan boshlab mintaqada antropogen omillar ham kuchaya boshlagan: qishloq xo'jaligi intensivligi, kanalizatsiya va sug'orish tarmoqlarining noqonuniy kengaytirilishi natijasida erlarning sho'rlanishi, yer eroziyasi hamda yer resurslari degradatsiyasi jarayonlari avj olgan. Sovet davrida Mirzacho'lni sug'orish va Amudaryo suvini unda yo'naltirish ekouyumlarga oid keng ko'lamli loyihalar olib kelib, sho'rlanish va ekologik muvozanat buzilishiga sabab bo'ldi. Mustaqillik yillarida ham notog'ri resurs boshqaruvi, sanoat chiqindilari va shaharlashuv jarayonlari ekologik muammolarni yanada og'irlashtirdi. Shu tariqa, tabiiy va antropogen omillarning uyg'unlashuvi O'zbekiston tarixida iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy hayot va madaniy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.*

Kalit so'zlar. *O'zbekiston, tabiiy ekomuammolar, antropogen ekomuammolar, suv resurslari, sho'rlanish, yer degradatsiyasi, cho'lsharoit, undirish loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir, ekologik muvozanat*

Abstract. *Throughout Uzbekistan's history, both natural and anthropogenic ecological problems have played a pivotal role. From ancient and medieval times, the region's geography—characterized by aridity, deserts, and climatic fluctuations—directly affected local livelihoods. Natural changes in the Amu Darya and Syr Darya river systems, such as water level drops, floods, and dust storms, negatively impacted agriculture, livestock breeding, and urban economies. Beginning in the early twentieth century, anthropogenic factors became prominent: intensified agriculture, unregulated expansion of irrigation networks, soil salinization, soil erosion, and degradation of land resources grew more severe. During the Soviet era, large-scale projects to irrigate the Mirzacho'l region and divert Amu Darya waters led to salinization and disrupted ecological balance. In the years following*

independence, mismanagement of resources, industrial waste, and rapid urbanization further exacerbated ecological challenges. Consequently, the interaction of natural and anthropogenic factors has significantly influenced Uzbekistan's economic development, social life, and cultural processes.

Keywords. *Uzbekistan, natural eco-problems, anthropogenic eco-problems, water resources, salinization, land degradation, desert conditions, irrigation projects, socio-economic impact, ecological balance*

Tabiiy muhit – hayot va insoniyat maskanidir. Jamiyatning butun boyliklari inson mehnati bilan yaratiladi, lekin buning bir sharti bo'lib, atrof-muhit bilan uzviy aloqadorlikdadir. Insoniyatning tabiat bilan hamnafaslikda erishgan madaniyatida tabiiy muhitning borligi yoki qusurlarida namoyon bo'ladi. Ekologiya shakllanish jarayonlarining ilk davrlarida tabiiy fan hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda ijtimoiy ahamiyat kasb etib, haqiqatda inson haqidagi fan bo'lib qoldi. Tarixni ikkiga bo'lib, tabiat tarixi va insoniyat tarixi deyish mumkin. Lekin insoniyat mavjud ekan, ular o'zaro aloqadadir, ajratib bo'lmaz munosabatdadir. Sivilizatsiyaning stixiyali rivojlanishi nihoyasiga yetmoqda. Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, umuminsoniy dardga aylandi. Zamonaviy ekomuammolar insoniyat oldiga yashab qolish dasturini ishlab chiqish vazifasini qo'yimoqda.

O'zbekiston tarixida ekomuammolarning tarixiy nuqtayi nazardan tadqiq va tahlil etilishi, ilmiy natijalarni keng xalqqa ommalashtirilishi ekomadaniyatning yanada ravnaqi uchun xizmat qiladi. Geograf M.J.Matchanov ekologik xavfni tabiiy va antropogen omillarga ajratib o'rganadi. L.N.Gumilev Yer sharida miloddan 15 ming yil avval cho'llar bo'lmagan deydi. Geograf olimlar Yerning cho'llanishini olovdan foydalanish, antropogen (texnogen) o't ketishi natijasida sodir bo'lgan, deb baholaydilar. Germaniyalik taniqli biolog Berngard Grjimeka o'simliklar dunyosiga yovvoyi hayvonlarni, asosan, echkini xonakilashtirilishi tufayli katta zarar yetdi, deb hisoblaydi.

Ekomuammolarda tabiiy omilni tadqiq etish tarix va etnologiya fanlaridagi muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, Yerning sovib muzlashi, quyosh faolligining oshishi, suv toshqini, zilzila, yuqumli kasalliklar kabilarning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi, demografik, etnik jarayonlardagi o'rni tadqiq va tahlil etilib baholanmog'i zarur. Hozirgi kunga kelib birgina tabiiy ofatlarning o'zidan keladigan zarar ko'plab davlatlarning yalpi milliy mahsuloti miqdoridan bir necha bor oshib ketmoqda. Shu sababli bu muammo bir necha bor BMT Bosh Assambleyasi kun tartibiga qo'yildi, uning 1989 yil 22-dekabrdagi qaroriga ko'ra 1990-2000 yillar "Tabiiy ofatlardan keladigan xavfni kamaytirishning xalqaro o'n yilligi" deb e'lon qilindi.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

Iqlimiy o'zgarishlarning ekomuhitga ta'siri esa taniqli geograf olim N.A.Yasamanov, tarixchi L.N.Gumilev asarlarida tadqiq va talqin etilgan bo'lib, O'zbekiston tarixini o'qitishga doir Buyuk muzlik va kichik muzlik davrlari ancha yoritilgan. Ijtimoiy taraqqiyotda iqlimiy o'zgarishlarga dastlab M.Ye.Masson murojaat etgan. 10-12 ming yil avval Sahroi Kabirning (Afrikada) janubida bugungi Kaspiy dengizi hajmida ikkita ko'l bo'lib, tabiati boy edi. Iqlimiy o'zgarishlar: quyosh faolligining oshib borishi, qurg'oqchilik va sovuq iqlimning almashinuvi bilan 4 ming yil avval Sahroi Kabirda neolit madaniyati, Hind daryosi havzasida Xarappa madaniyatlari inqirozga uchradi va cho'llar paydo bo'ldi. Bugungi Liviya cho'llari 3 ming yil avval gullab-yashnagan hudud bo'lgan.

Ekologik xavfli vaziyatlarni tabiiy omillarini o'rganuvchi tadqiqotchilar o'z mutaxassisligi doirasida tavsiflaydilar. Ulardan ayrimlari tabiiy ofatlarni geofizik, geologik, gidrogeologik va atmosfera omillari natijasida sodir bo'ladi, deb hisoblaydi. V.N.Burkov va A.V.Shchepkin kabi olimlar ekologik xavfning vujudga kelishini bevosita va bilvosita guruhlarini ko'rsatib, favqulodda ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar. Bu jihatdan aytish kerakki, T.Tilovov yaqin o'tmishdagi ko'plab urushlarning sababini quyosh faolligi oshishidan izlasa, L.N.Gumilev mo'g'ullar bosqini davridagi vayronagarchilikning ma'lum bir oqibatlarini zilzila natijasida bo'lgan, deb baholaydi.

Jamiyat rivojidagi ekomuammolarda antropogen omilining o'rni o'tgan asrning 70-80 yillaridan boshlab keng qamrovda o'rganila boshlandi. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi yillarida ekomuammolarning tarixiy taraqqiyotidagi o'rniga bag'ishlangan bir qancha ishlar qilindi. Shuningdek, Mirzacho'lni o'zlashtirilishi jarayonida vujudga kelgan ekomuammolar Z.Ashirboyeva, N.Mirzayeva kabi tadqiqotchilar ishlarida bir qadar o'z aksini topdi. Dehqonchilik madaniyatining asoslanishiga ko'ra, M.Eshmatov «umumsayyora masshtabidagi oxirgi halokat – neolit inqilobi», deb hisoblaydi.

Issiq iqlimli yurtlarida sug'orma dehqonchilikda meliorativ tadbirlarga e'tibor bermaslik, ya'ni drenaj, zovurlar qurilmasligi, to'plangan sizot suvlarining chiqib ketmasligi tufayli sho'rlanish boshlanib, qadimgi sivilizatsiyalar tanazzulga uchraganligini nazarda tutib, N.A.Yasamanov sug'orma dehqonchilikni «birinchi ekologik inqiroz», deb baholaydi. Taniqli amerikalik tadqiqotchi R.Ye.Adams va boshqa qadimshunoslar Old Osiyodagi shumerlar madaniyatining halokatini irrigatsion inshootlar qurilishidagi xatoliklar va sizot suvlarining chiqib ketishi uchun drenajlar bo'lmaganligida, deb baholaydilar. Er.avv. III mingyillik boshlarida Markaziy Osiyoda gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari Oltintepa va Nomozgohtepalarning inqirozida ham yuqoridagi halokat kuzatiladi. Er.avv. VI-V asrlarga taalluqli Orol havzasi

madaniyati halokati qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishdagi puxta o'ylanmagan, noto'g'ri siyosat asosiy sabab etib ko'rsatiladi.

Inson o'z landshaftida, o'z ajdodlari yutuqlari asosida o'zining yaqinlari uchun ishlaydi. Boshqa bir etnosning o'rnashuvi bilan ekomuhit buziladi. Mirzacho'lga ko'chirilgan rus dehqonlari Sharq tabiati qonuniyatlarini bilmas edilar, mahalliy sug'orma dehqonchilik, melioratsiyaning ilg'or tadbirlaridan foydalanishmadi.

Muarrix V.O.Klyuchevskiy "Yer ustidagi ochiq suvlar bilan yer osti, sizot suvlari uzviy bog'liq: birinchisidan oxirgisi oziqlanadi yoki u yutiladi", - deb yozgan edi. O'zlashtirishning dastlabki yillarida rus dehqonlari hech qanday o'g'itsiz va melioratsiyasiz paxtadan gektariga 30 sentnergacha hosil olishdi. Suvning umumiy hajmi sug'oriladigan yerlarda har bir gektariga 30-40 ming kub metrdan to'g'ri kelgan. Bu aql bovar qilmas me'yor edi. Mirzacho'lning dastlabki xo'jayinlari yerning hosildorligini saqlash va oshirish kelajagi haqida umuman qayg'urmadilar, kanal va ariqlarni tozalash ishlarini olib bormadilar. Faqat suv berib turilsa bo'ldi, hosil bo'laveradi, degan qarorga keldilar, hattoki suvdan o'g'rincha foydalanishgan, sug'orish asosan ko'p bostirib sug'orish usulida olib borilgan. Natijada sizot suvlari ko'payib, Mirzacho'l yerlarini sho'r bosa boshladi. Mirzacho'l yerlarining dastlabki tadqiqotchilaridan bo'lgan S.F.Ostrovskiy 1907 yildayoq o'zlashtiriladigan yerlarning barchasini sug'orish mumkin emas, masalan, suv chiqishi qiyin bo'lgan, juda chuqur va sho'rhok yerlar sug'orilsa, yerning sho'rlanishi, yoinki botqoqlanishi kelib chiqadi, - degan edi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, ekomuammolar insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq boshlangan. Ekomuammolarni tarixiy nuqtayi nazardan o'rganishda antropogen va tabiiy omillariga e'tibor qaratish, har qanday tarixiy taraqqiyot bosqichida ulaning o'rnini ajrata bilish, tavsiflash tarixiy mavzuga doir tadqiqotlarda yoritilmog'i lozim.

Fikrimizcha, atrof-muhitga antropogen omilning ta'siri ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari asosida tadqiq etilishi lozim bo'lib, insonning tabiatdagi faoliyati «inkorni inkor» qonuniyatida namoyon bo'ladi. Masalan, ibtidoiy ovchilik, termachilik jamoalarining taraqqiyoti yuqori paleolit, mustye davrining boshlariga kelib, birinchi ekomuammoga yuz tutadi.

Ibtidoiy ovchilar 120 kilometr masofagacha bo'lgan hududdan ov qilib yashashi termachilik mahsulotlarining kamayishiga olib keladi. Yuqumli (infeksion) kasalliklar ko'payadi, odamxo'rlik vujudga keladi, jamoalararo nizolar, urushlar ko'payadi. Ziroatchilik va chorvachilikning kashf etilishigina insoniyatning tabiatda mavjudligi, hayotini asrab qoldi. Oddiy usulda ishlab chiqarish, motiga dehqonchiligi rivoji

oqibatida tuproq eroziyaga uchrab bordi, chorvachilik taraqqiyoti tufayli o'simliklar dunyosi zarar ko'rdi.

Ikkinchi ekomuammo vujudga kelib, aholining o'sish sur'atiga ko'ra ehtiyojlarini yangicha usulda ishlab chiqarish asosida sug'orma ziroatchilikning kashf etilishi, dehqonchilik va chorvachilikning taraqqiyoti eng dastlabki sivilizatsiyalarga asosi bo'lishi bilan, aholi sonining o'sishi, tabiatga antropogen ta'sirning ko'payishiga sabab bo'ldi.

Taraqqiyotning turli bosqichlarida ziroatchilik vohalarining sho'rlanishi, cho'llanishi oqibatida davlat, jamoalar insoniyatning o'sib borayotgan ehtiyojlarini dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligi to'la qondira olmay qoldi, uchinchi ekomuammo vujudga keldi.

Sanoatlashgan ishlab chiqarishga o'tilishi, texnogen taraqqiyot tendensiyasi bugungi kunga kelib jahon sivilizatsiyasi halokatga uchrashini muqarrar qilib qo'ydi, yoyinki, «insoniyatni navbatdagi umumsayyoraviy inqiroz kutayapti».

Insoniyat ehtiyojlarini qondirish borasida sanoat ishlab chiqarishining yuksalishi bilan XIX asrning oxiri XX asr boshlarida sun'iy mahsulotlar ishlab chiqilishi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, XX asrning 80-90 yillariga kelib, keng iste'mol tovarlari yetishtirishda gen injenerligi ilmiy yutuqlari asosida «yashil inqilob» davri boshlandi. Sanoatlashgan sun'iy mahsulotlar ishlab chiqarish juda rivojlanib ketganligi bilan birgalikda tabiiy xom ashyolarga bo'lgan talab turmushimizning asosiy zaruriyati maqomini yo'qotmay kelmoqda.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Абдушукурова, И. К. (2018). Роль и место семьи в формировании патриотизма и гражданской позиции у молодежи. *Вопросы науки и образования*, (8 (20)), 184-185.
2. Абдушукурова, И. К., & Самадов, Б. К. (2016). О мерах по борьбе против торговли людьми. *Научный журнал*, (6 (7)), 140-141.
3. Абдушукурова, И. К. (2017). Воспитание студентов в аспекте молодежной политики. *Достижения науки и образования*, (6 (19)), 77-78.
4. Абдушукурова, И. К., & Самадов, Б. К. Преемственность поколений и воспитание молодёжи.
5. Абдушукурова, И. К., & Самадов, Б. К. (2021). Преемственность поколений и воспитание молодёжи. *Вестник науки и образования*, (10-3 (113)), 83-85.
6. Абдушукурова, И. (2022). НОВЫЕ ТРЕНДЫ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 1235-1247.

7. Самадов, Б. К., & Абдушукурова, И. К. (2021). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ТРИЗ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ. *Проблемы науки*, (6 (65)), 85-87.
8. Абдушукурова, И. К. (2020). Противодействие торговле женщинами и методы профилактики. *Вестник науки и образования*, (10-3 (88)), 39-42.
9. Абдушукурова, И. К. (2017). Применение инновационных технологий в преподавании социологии. *Проблемы педагогики*, (6 (29)), 12-13.
10. Абдушукурова, И. К., & Темирова, Н. Э. (2014). Борьба против торговли людьми в Узбекистане. *Молодой ученый*, (4), 466-468.
11. Kudratov, D. (2023). ABOUT THE SHRINE OF KHOJAMUSKENT FATHER IN JIZZAH OASIS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 73-78.
12. Қудратов, Д. (2022). IX-XIV АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 236.
13. Qudratov, D. (2021). PECULIARITIES OF THE FIRST URBANIZATION PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 2(12), 13-16.
14. Маматов, Ш. М., & Алибеков, У. Ю. (2019). Повышение благосостояния сельского населения Узбекистана в свете Стратегии действий. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 63-65.
15. Yuldashevich, A. U., & Musurmonkulovich, M. S. From the Ethnic History of the Population of Ustrushana. *JournalNX*, 7(04), 37-41.
16. Алибеков, У. Ю., & Маматов, Ш. М. (2021). О РОДЕ «БАЯУТ» В СОСТАВЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА. In *МИР ЕВРАЗИИ: ОТ ДРЕВНОСТИ К СОВРЕМЕННОСТИ* (pp. 153-159).
17. Мирзалиев, У. Б., & Маматов, Ш. М. (2012). ТРУДОВАЯ МИГРАЦИЯ И ПРОБЛЕМА ЗАНЯТОСТИ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ. In *ИССЛЕДОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ОБЩЕСТВА И ФОРМИРОВАНИЕ НАПРАВЛЕНИЙ ЕГО СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ* (pp. 227-228).
18. Алибеков, У., & Маматов, Ш. ҚАДИМИЙ МИРЗАЧЎЛДА ШАҲАРСОЗЛИК МАДАНИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.
19. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 28-41.
20. Davron O'g'li, A. D. (2025). AFSHINLAR SULOLASINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 600-605.
21. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O'ZBEKISTON MADANIYATING

ASOSIY YO 'NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR
TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR
JURNALI*, 1(6), 90-101.

22. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O 'ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 11-27.

23. Davron O'g'li, A. D. (2025). ILK O 'RTA ASRLAR DAVRI YOZMA VA ARXEOLGIK MANBALARIDA USTRUSHONA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 606-612.

24. Davron o'g'li, A. D. (2025). O 'RTA OSIYO KO 'CHMANCHI CHORVADORLARI TARIXINING O 'RGANILISHI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(8), 100-113.

25. Davron O'g'li, A. D. (2025). ILK O 'RTA ASRLARDA USTRUSHONADAGI SIYOSIY HOLAT. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 613-619.

26. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.

27. Ismoil, R., Dilshod, A., & Zilola, A. (2025). O 'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA TINCHLIKPARVARLIK TAMOIYILLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 203-214.

28. Zilola, A., Ismoil, R., & Dilshod, A. (2025). MISRDAGI SUV OSTI ARXEOLGIYASI TADQIQOTLARIDAN. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 192-202.

29. Nematov, R. A., & Almanov's, Q. O. (2022). The role of historical sources in the study of the history of the turkish empire. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(10), 25-31.

30. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 122-125.

31. Неъматов, Р. (2023). Хоразм Афригийлар сулоласи–Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. *Journal of Fundamental Studies*, 1(7), 16-23.

32. Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 35-39.

33. OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

34. Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.
35. Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(6), 14-23.
36. Ne'matov, R. (2023). ILK O 'RTA ASRLARDA XORAZM TARIXSHUNOSLIGINING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *Interpretation and researches*, 1, 21.
37. Неъматов, Р. А. У. (2020). Интеллектуальное и культурное наследие узбекского народа. *Наука, образование и культура*, (4 (48)), 85-87.
38. Nematov, R. A. (2025). Early medieval ethnic processes in Khorezm oasis in archaeological and written sources. *American Journal of Philological Sciences*, 5(02), 10-16.
39. Nematov, R. (2024). REFLECTION OF THE HISTORY OF KHOREZM IN THE EARLY MIDDLE AGES IN WRITTEN SOURCES. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(12), 72-78.
40. Неъматов, Р. А. Ў. (2024). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМ ТАРИХИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАРДА АКС ЭТИШИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 377-382.
41. BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.
42. Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. *Ilm-fan va ta'lim*, 3 (18), 151, 312.
43. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.
44. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.
45. Bosimovich, T. B., & Jonibek, R. (2022). FROM THE HISTORY OF EARLY MEDIEVAL POTTERY CRAFT. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 86-87.
46. Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO 'CHMANCHILIK FENOMENINING O 'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).

47. Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O 'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).
48. Абдуматов–Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 293-296).
49. Komil o'g, M. R. S., Axmatkulovich, A. A., & Vildanovich, G. S. (2025, May). XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI VA BAYTUL-HIKMA OLIMLARI O 'RTASIDAGI O 'ZARO HAMKORLIK. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 305-311).
50. Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO 'LNI O 'ZLASHTIRISH VA KO 'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).
51. Galiyev, S. (2024, September). O 'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).
52. Galiyev, S. (2024). O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O 'RNATILISHI VA RIVOJLANISHI. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(9), 70-74.
53. Hakimova, S., & Galiyev, S. (2025). INGLIZ PARLAMENTING TARIXIY O 'ZGARISHLARI. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 157-163.
54. Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. *Социосфера*, (4), 226-232.
55. Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. *Наука и образование: проблемы, идеи, инновации*, (4), 26-30.
56. Шодмонкулова, М. (2025). ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРНИНГ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШДАГИ ЎРНИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 176-181.
57. Шодмонкулова, М. (2025). ҒАРБ ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 164-169.
58. Шодмонкулова, М. (2025). Либерал-Демократик Ғояларнинг Тараққиёт Стратегиясини Амалга Оширишдаги Ўрни. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 170-175.

59. Шодмонкулова, М. (2025). ЎРТА СИНФ-МУЛҚДОРЛАР СИНФИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 152-156.
60. Шодмонкулова, М. М. (2025). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА СИЁСИЙ ЛИБЕРАЛИЗМНИНГ АҲАМИЯТИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 4(38), 354-357.
61. Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 7(7), 540-545.
62. Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ В НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.
63. Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 61-67.
64. Mavlyanov, U. (2022). ABOUT "THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR". *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 133-138.
65. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). ФРИДРИХ НИЦШЕ ВА МАДАНИЯТНИНГ ИРОДА АСОСИДАГИ ТАЛҚИНИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 91-98.
66. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). СЛАВЯН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ВА УНИНГ КЕЛАЖАГИ: ДАНИЛЕВСКИЙ БАШОРАТИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 82-90.
67. Mavlyanov, U. N. (2023). Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(07), 41-43.
68. Мавлянов, У. (2025). АЛЛОМАГА НАВОИЙ ТАЪРИФИ. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(7), 142-146.
69. Мавлянов, У. Н., & Тангирбердиев, Ш. (2025). АЛИ САФИЙ ҲАЁТИ ВА МЕРОСИ ҲАҚИДА. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 78-84.
70. Мавлянов, У. Н. (2025). АЛЛОМАНИНГ МЕРОСИДА БОРЛИҚ ВА БИЛИШ МАСАЛАЛАРИНИНГ ҚЎЙИЛИШИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 73-77.
71. Мавлянов, У. Н. (2025). БУЮК СИЙМОЛАР БЕШИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 68-72.
72. Исроилов, М. Я. (2019). Образование и его развитие в Узбекистане. *Academy*, (5 (44)), 48-49.

73. Исроилов, М. Я. (2015). Влияние использования Интернет-ресурсов на повышение эффективности обучения истории. *Наука, техника и образование*, (5 (11)), 147-148.

74. Исроилов, М. (2024). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС: ТАРИХИЙ ПОЙДЕВОР ВА ИСТИҚБОЛ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 419-423.

75. Исроилов, М. Я. (2016). РОЛЬ РАЗЛИЧНЫХ ТРАДИЦИЙ, ОБРЯДОВ И ЦЕРЕМОНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПОЛОМ И ВОЗРАСТОМ, В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ И ЭТНОГРАФИИ УЗБЕКОВ. In *Люди, культуры, пространство: социокультурная динамика мира Евразии* (pp. 231-235).

76. Назаров, О., & Қосимова, Э. (2024). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА ТАЪЛИМ ДАРГОҲЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. *Talqin va tadqiqotlar*, 2(3), 40.